AXLOQIY QADRIYATLAR VA UNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

Namangan davlat
pedagogika instituti ijtimoiy fanlar
fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi talabasi
Jamoliddinova Muxtasar
Akramjonjamoliddinovjamoliddin@gmail.com

Ilmiy rahbar:
Axmadjanova Muazzam Islomjonovna
Namangan davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi
muazzamaxmadjanova70@gmail.com
+998508826575

Annotatsiya: Mazkur maqolada axloqiy qadriyatlar tushunchasi, ularning shakllanishi va jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Axloqiy qadriyatlar insonning xulq-atvori, dunyoqarashi hamda ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi muhim omil sifatida yoritiladi. Shuningdek, maqolada halolik, adolat, mas’uliyat, vatanparvarlik kabi axloqiy tamoyillarning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida axloqiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish masalalari ham alohida e’tibor markazida bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: axloqiy qadriyatlar, jamiyat, shaxs, axloq, ijtimoiy munosabatlar, halollik, adolat, mas’uliyat, vatanparvarlik, ma’naviyat, globallashuv.

Annotatsiya: V dannoy statye analiziruetsya ponyatiye nravstvennix sennostey, ix formirovaniye i rol v jizni obshestva. Nravstvenniye sennosti rassmatrivayutsya kak vajniy faktor, reguliruyushiy povedeniye cheloveka, yego mirovozzreniye i sotsialniye otnosheniY. Takje v statye raskrivayetsya znacheniye takix nravstvennix prinsipov, kak chestnost, spravedlivost, otvetstvennost i patriotizm v obespechenii stabilnosti i razvitiya obshestva. Osoboye vnimaniye udelyayetsya voprosam soxraneniya i razvitiya nravstvennix sennostey v usloviyax sovremennoy globalizatsii.

Klyucheviye slova: nravstvenniye sennosti, obshestvo, lichnost, moral, sotsialniye otnosheniya, chestnost, spravedlivost, otvetstvennost, patriotizm, duxovnost, globalizatsiY.

Abstract: This article analyzes the concept of moral values, their formation, and their role in social life. Moral values are considered an important factor that regulates human behavior, worldview, and social relations. The article also highlights the significance of moral principles such as honesty, justice, responsibility, and patriotism in ensuring social stability and development. Special attention is given to the preservation and development of moral values in the context of modern globalization.

KeyWords: moral values, society, personality, ethics, social relations, honesty, justice, responsibility, patriotism, spirituality, globalization.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida axloqiy qadriyatlar doimo jamiyat hayotini tartibga soluvchi, shaxs xulq-atvorini belgilovchi va ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtiruvchi muhim omillardan biri bo‘lib kelgan. Har bir jamiyatning ma’naviy qiyofasi, uning barqarorligi va rivojlanish darajasi aynan axloqiy qadriyatlarning qay darajada shakllanganligi va amal qilinishiga bevosita bog‘liqdir. Axloqiy qadriyatlar insonning ichki dunyosi, uning e’tiqodi, maqsadlari va hayotiy qarashlarini ifodalovchi ma’naviy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Axloqiy qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, insonlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Halollik, adolat, vijdon, mas’uliyat, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar shaxsning yetuk inson sifatida shakllanishida asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Ushbu qadriyatlar nafaqat shaxsiy hayotda, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar jamiyat rivojining jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o‘tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o‘zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’ gi qonunida qayd qilinganidek, “Ta’limda umuminnsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustuvorligi” ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar tushuniladi. Qadriyatning mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan izohlaganimizda, insonlarning tarixiy tajriba an’analarini kelgusi avlodlarga to‘la – to‘kis o‘rgatish, ta’lim tarbiya berish tushuniladi. Shuning uchun milliy ma’naviy qadriyatlarni e’zozlab, ardoqlab sevib bajarish va ularni o‘z holiga keltirmoq dolzarb masaladir. [1]

Abdurahim Erkayevning ‘‘Ma’naviyat -millat kamoloti’’ asarida O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillarida milliy g‘oya va ma’naviy tiklanish asoslarini yoritib bergan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif ushbu kitobda axloqiy qadriyatlarni jamiyatning “ustuni” va millatning yashab qolishi sharti sifatida talqin etadi.

Kitobda axloqiy qadriyatlar va ularning ijtimoiy ahamiyati haqida ilgari surilgan asosiy g‘oyalar axloq – ma’naviyatning o‘zagi. Bunda Erkayev axloqni shunchaki xulq-atvor qoidalari emas, balki ma’naviyatning ichki mexanizmi deb

hisoblaydi. Agar insonning axloqi ijobiy qadriatlar asosida qurilmasa, u qanchalik bilimli bo‘lmasin, jamiyat uchun xavfli bo‘lib qolaveradi. Umuminsoniy va milliy axloqiy normalar odamlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi “ijtimoiy yelim” vazifasini o‘taydi. Qonunlar jazolash bilan tartib o‘rnatsa, axloqiy qadriyatlar insonning ichki vijdoni orqali ijtimoiy tartibdi saqlaydi. Mehmondostlik va bag‘rikenglik- bu qadriyatlar jamiyatda turli millar va din vakillari o‘rtasida totuvlikni ta’minlashda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. [2]

Ilgari “Davlat-jamiyat – inson” ierarxiyasi bo‘lgan bo‘lsa, endi inson manfaati birinchi o‘ringa chiqdi. Bu davlat organlari hodimlaridan yuksak kasbiy va insoniy axloqni talab etadi. Axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyati adolatli tadqiqot, kambag‘allikni qisqartirish va har bir fuqaroga e’tibor qaratishda namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining azaliy qadriyatlari zamonaviy demokratik tamoyillari bilan sintez qilinadi. Turli millat va din vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat jamiyat barqarorligini ta’minlovchi eng muhim ijtimoiy omil sifatida ko‘rsatiladi.

Shu bilan bir qatorda yangi axloqiy muhit mahalla va ta’lim sohalarini ham o‘z ichiga oladi. Mahalla inson qadrini yuksaltirishning eng quyi va asosiy bo‘g‘ini. Ta’lim va tarbiya jarayonida ‘‘axloqiy immunitet’’ ni shakllantirish, yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish jamiyat xavfsizligining garovi deb hisoblanadi. Milliy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi ma’naviy tiklanish va bag‘rikenglik tushunchalarini o‘z ichiga oladi. [3]

Axloqiy qadriyatlar ma’naviyatning o‘zagi va millat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin etilgan bo‘lib, bunda axloqni jamiyatni jipslashtiruvchi ‘‘ijtimoiy yelim’’ va ichki tartib intizom omili deb hisoblaydi. Ayniqsa, andisha, hayo va bag‘rikenglik kabi milliy sifatlarni ijtimoiy barqarorlikdagi rolini yuqori baholaydi. Ismoil Saifnazarov va boshqalar ham muallifdagi “Yangi O‘zbekiston: inson Qadri ulug‘langa yurt” kitobida esa axloqiy qadriyatlar “Inson qadri uchun”

tamoyili doirasida davlat siyosatining amaliy o‘lchoviga aylangani, adoliyat va ma’suliyat kabi qadriyatlar yangi ijtimoiy modelning poydevori ekani hamda mahalla instituti orqali insoniylik tamoyillari hayotga tadbiq etilishi tahlil qilingan. Mahmud Quronovning “Milliy tarbiya asoslari” darsligida axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatiularning ‘‘ma’naviy qalqon’’ va axloqiy immunitet sifatidagi fuksiyali orqali ochib beriladi. [4]

Axloqiy qadriyatlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur singib ketgan bo‘lib, ular nafaqat shaxsning ichki dunyosini, balki jamiyatning umumiy ma’naviy muhitini ham belgilaydi.[5] Ayniqsa, oila institutida axloqiy qadriyatlarning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki insonning dastlabki axloqiy qarashlari aynan oilada shakllanadi va keyinchalik ta’lim tizimi hamda ijtimoiy muhit orqali mustahkamlanadi.[6]

Ta’lim tizimi ham axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali yosh avlodda halollik, mas’uliyat va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni rivojlantirish mumkin.[7] Bu esa jamiyatda ongli, faol va ma’naviy yetuk fuqarolarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalari ham axloqiy qadriyatlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ijobiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish mumkin. [8] Aks holda, noto‘g‘ri axborot va zararli g‘oyalar yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy qadriyatlar jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biridir.[9] Ular insonning xulq-atvori, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib, jamiyatda o‘zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Zamonaviy globallashuv sharoitida axloqiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat

kasb etmoqda. Shu bois, ularni yosh avlod ongiga singdirish, ta’lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llash va jamiyatning barcha sohalarida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta’minlash zarur. Axloqiy qadriyatlar mustahkam bo‘lgan jamiyatgina har tomonlama rivojlangan, barqaror va farovon bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham ularni asrash va boyitish har bir shaxs va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi (Darslik, 2024).
2. Erkaev A. Ma’naviyat – milliy kamoloti. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
3. Saifnazarov I. va boshqalar. Yangi O‘zbekiston: inson qadri ulug‘langan yurt. – Toshkent: ‘‘Yangi O‘zbekiston’’ nashriyoti, 2022.
4. Quronov M. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
5. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Musurmonova O. *Oila pedagogikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
7. Abdullayeva SH. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Fan, 2015.
8. Toffler A. *Uchinchi to‘lqin*. – Toshkent: Sharq, 1999.
9. Fromm E. *Inson qalbi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
10. Islomjanovna A. M. HOZIRGI DUNYODA GLOBALLASHUV ASPEKTLARI VA UNING O ‘ZBEKISTONGA TASIRI //Global Science Review. – 2025. – T. 7. – №. 1. – S. 67-74.
11. Ahmadjanova Muazzam Islamjanovna, FOREIGN EXRERIENCES IN DEVELORING STUDENTS’ CRITICAL THINKING BASED ON RHILOSORHICAL KNOWLEDGE , Luchshiye intellektualniye issledovaniya: Vol. 36 No. 1 (2025): LUCHSHIYE INTELLEKTUALNIYE ISSLEDOVANIYA | CHAST-36 | TOM-1

12. Ahmadjanova Muazzam Islamjanovna, METHOD FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING: STAGES, PROCESS OF WORKING WITH STUDENTS, AND ASSESSMENT CRITERIA , Luchshiye intellektualniye issledovaniya: Vol. 35 No. 3 (2024): LUCHSHIYE INTELLEKTUALNIYE ISSLEDOVANIYA | CHAST-35 | TOM-3